



FAN OLIMPIADALARI MARKAZI

Iste'dodlarni kashfetamiz!

IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM MUASSASALARI AGENTLIGI HUZURIDAGI
FAN OLIMPIADALARI MARKAZI

**2025-2026-O'QUV YILIDA UMUMTA'LIM FANLARI BO'YICHA
ASOSIY OLIMPIADANING IKKINCHI TUMAN (SHAHAR) BOSQICHI**

GEOGRAFIYA (11-sinf) FANIDAN **TEST TOPSHIRIQLARI KITOBI**

Ishtirokchining familiyasi, ismi va otasining ismi

Imzo

Ushbu test topshiriqlari kitobi 30 ta (1–30) yopiq turdagi test topshiriqlaridan iborat.
Har bir topshiriq uchun ajratilgan ball savol kitobida ko'rsatilgan.
Topshiriqlar yopiq turdagi bo'lib, ularda A, B, C va D javob variantlari berilgan.
Ishtirokchi har bir topshiriq uchun faqat bitta to'g'ri javobni tanlashi va javoblar varaqasida mos keluvchi doirachani to'liq bo'yashi kerak.

*Ajratilgan vaqt: 60 daqiqa
Savollar soni: 30 ta
Maksimal ball: 50 ball*

Ushbu savollar kitobi 4 sahifadan iborat

Fan olimpiadalari markazi
rasmiy telegram sahifasi.
@Fan_olimpiadalari_M

Olimpiada topshiriqlari yechimlari
ushbu telegram kanalda e'lon qilib
boriladi.



© Fan olimpiadalari markazi, 2025

1. [0,9 ball] Yerosti suvlaridan qaysi biri yog'inlar, daryo, ariq, ko'l, suv omborlarining suvi yerga shimilishidan hosil bo'ladi?

- A) Artezian suvlari B) Mineral suvlari
C) Termal suvlari D) Grunt suvlari

2. [0,9 ball] Yer va Yupiter oralig'idagi planetani toping.

- A) Mars
B) Neptun
C) Saturn
D) Venera

3. [0,9 ball] Janubiy Osiyo mintaqasiga tegishli davlatlarni ajrating?

- A) Laos, Nepal B) Benin, Ummon
C) Nepal, Butan D) Malayziya, Togo

4. [0,9 ball] Afrikaning ikkinchi eng baland cho'qqisini toping?

- A) Klimanjaro B) Margarito
C) Keniya D) Tubkal

5. [0,9 ball] Dunyodagi qaysi yirik ko'llar oqmas ko'llar hisoblanadi?

- A) Kaspiy, Yuqori
B) Viktoriya, Aydarko'l
C) Baykal, Viktoriya
D) Kaspiy, Orol

6. [0,9 ball] Avstraliyaning asosiy iqtisodiy rayonini aniqlang?

- A) Shimoliy-sharqi
B) Janubi-sharqi
C) Janubi
D) Sharqi

7. [0,9 ball] Qaysi cho'kmaning chuqurligi 7729 metni tashkil etadi?

- A) Puerto-Riko B) Yava
C) Kermadek D) Tonga

8. [0,9 ball] Axalteki zotli otlari bilan butun dunyoga mashhur bo'lgan davlatni toping?

- A) Turkmanston B) Tojikiston
C) Qozog'iston D) Turkiya

9. [0,9 ball] Chodak, Zarmitan, Qo'shbuloq, Qizilolma, Marjonbuloq qaysi foydali qazilma konlari hisoblanadi?

- A) Molibden
B) Mis
C) Oltin
D) Neft

10. [0,9 ball] Arab va barbarlar qaysi irqga mansub?

- A) Sharqiy yevropeoid
B) Shimoliy yevropeoid
C) G'arbiy yevropeoid
D) Janubiy yevropeoid

11. [1,5 ball] Suvayirg'ichga tegishli javobni toping?

- A) Daryoning okean, dengiz, ko'l yoki boshqa daryoga quyiladigan joyi
B) Barcha suvi bir daryoga oqib tushadigan quruqlik maydoni
C) Qo'shni daryolar havzalarini bir-biridan ajratib turadigan chegara
D) Bosh daryo o'zining barcha irmoqlarini qo'shib olishi

12. [1,5 ball] Bizga ma'lumki, ba'zan iliq havo yuqoriga tez ko'tarilib, to'p-to'p bulutlarni harorat 0 °C dan past bo'lgan balandlikka olib chiqib ketadi. Bu balandlikda yomg'ir tomchilari muzlab nimaga aylanadi?

- A) yomg'ir
B) do'l
C) shudring
D) qor uchquni

13. [1,5 ball] Quvasoy, Ohangaron, Angren, Navoiy va Bekobod shaharlarida hamda Zafarobod shaharchasida qaysi turdagi qurilish materiali ishlab chiqarish korxonalari joylashgan?

- A) sement
B) shifer
C) temir-beton
D) marmar

14. [1,5 ball] Maydoni 52,5 mln km² bo'lgan o'lkani toping?

- A) Arktika
B) Antarktida
C) Antarktika
D) Janubiy qutbiy o'lka

15. [1,5 ball] Indoneziya va Peru poytaxtini aniqlang?

- A) Dakka, Lima
B) Jakarta, Lima
C) Jakarta, Kito
D) Kuala-Lumpur, La-Pas

16. [1,5 ball] Milliy dinlar va ularga mos davlatlarni belgilang.

1	Nepal	a	Iudaizm
2	Xitoy	b	Induizm
3	AQSh	c	Daosizm
4	Yaponiya	d	Islom
5	Eron	e	Sintoizm

- A) 1-a, 2-b, 3-a, 4-e, 5-d
 B) 1-b, 2-e, 3-a, 4-c, 5-d
 C) 1-b, 2-c, 3-a, 4-e, 5-d
 D) 1-a, 2-c, 3-a, 4-e, 5-d

17. [1,5 ball] Respublikamizda elektr tizimi vujudga kelishi va uning O'rta Osiyo tizimiga ulanishi bilan transportning yangi qaysi turi vujudga keldi?

- A) elektrlashgan temir yo'l B) metropoliten
 C) havo D) elektron

18. [1,5 ball] Quyidagi ma'lumotlar qaysi viloyatga tegishli ekanligini aniqlang.

Ushbu viloyat O'zbekiston hududining 6,4 foizini egallaydi, aholisining 9,6 foizi yashaydi. Respublikamizdagi asosiy neft va gaz konlari shu hududda joylashgan. Respublikada ishlab chiqariladigan elektroenergiyaning 1/10 qismini, yengil sanoat mahsulotlarining 7 foizdan ortig'ini beradi.

- A) Qashqadaryo B) Surxondaryo
 C) Buxoro D) Andijon

19. [1,5 ball] Lion, Bordo, Lill, Tuluza, Marsel shaharlari qaysi davlatda joylashgan?

- A) Germaniya B) Fransiya
 C) Kanada D) Avstraliya

20. [1,5 ball] Qaysi shahar 2017-yildan boshlab Toshkent viloyatining ma'muriy markazi bo'ldi.

- A) Chirchiq B) Nurafshon
 C) Toshkent D) Bekobod

21. [2,6 ball] Uzunligi 115 km, 108 km, 104 km, 68 km bo'lgan daryolar qaysi tabiiy geografik okrugda joylashgan?

- A) Surxondaryo B) Farg'ona
 C) Qashqadaryo D) O'rta Zarafshon

22. [2,6 ball] Sudochoye buyurtmaxonasi qanday maqsadda tashkil etilgan?

- A) Amudaryo deltasidagi faunani saqlash uchun
 B) Amudaryo deltasidagi florani saqlash uchun
 C) Amudaryo deltasidagi baliqlarni saqlash uchun
 D) Amudaryo deltasidagi to'qaylarni saqlash uchun

23. [2,6 ball] Qozog'iston kichik o'lkasiga tegishli to'glarni belgilang?

1. Qorator. 2. Bo'kantog'. 3. Mug'ojar. 4. Oloy. 5. Torbog'otoy. 6. Nishopur. 7. Chingiztog'. 8. Paropamiz.

- A) 1, 2, 3, 5 B) 3, 2, 5, 8
 C) 3, 5, 7 D) 5, 7, 8

24. [2,6 ball] Qizilqumning tekislik qismida, tog'lari atrofi va janubi-sharqida hamda botiqlarida qanday tuproqlar tarqalgan.

- A) qumoq va qumli, sur-qo'ng'ir, sho'rxok va sho'rxok-botqoq
 B) taqirli, cho'l qumli, o'tloq-alluvial
 C) qumli, taqirli, och tusli bo'z, sur-qo'ng'ir
 D) qumoq, to'q bo'z, sho'rxok va sho'rxok botqoq


25. [2,6 ball] O'zbekistonda (2019-yil ma'lumotiga ko'ra) taxminan qancha aholi punkti mavjud?

- A) 1 190 dan ortiq B) 12 071 dan ortiq
 C) 11 000 dan ortiq D) 12 190 dan ortiq

26. [2,6 ball] Qora dengiz suvining sho'rli 18 % bo'lsa, uning 100 litr suvidan Fin qo'ltig'i suvining shuncha miqdoriga nisbatan qancha ko'p tuz olinishini aniqlang.

- A) 1600 g B) 160 g
 C) 200 g D) 1200 g

27. [2,6 ball] Ushbu diagrammada berilgan ma'lumotlarga tegishli javobni toping?




- A) O'zbekistonda suvni ifloslovchi asosiy tarmoqlar ulushi
 B) O'zbekistonda havoni ifloslovchi asosiy tarmoqlar ulushi
 C) O'zbekistonda ishlatiladigan suvning taqsimlanishi
 D) O'zbekistonda yetishtiriladigan texnik ekinlar tarkibi

28. [2,6 ball] Samolyot bosh meridiandan ko'tarildi va ekvator bo'ylab g'arbga qarab 445,2 km masofaga uchdi. Samolyot nechinchi daraja meridianga etib borganligini aniqlang



- A) 2° B) 4° C) 3° D) 5°

29. [2,6 ball] Berilgan xaritadagi B va C nuqtalari orasidagi masofani toping?



- A) 3 330 km B) 1 665 km
C) 2 665 km D) 1 560 km

30. [2,6 ball] Quyidagi rasmlar orasidan Shimoliy Amerika materigiga tegishlilarini ajrating.



- A) A, B, D
B) B, C, D
C) A, B, C, D
D) A, B, C